

Mirzaobod Tumani Axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati



Mustaqilligimizning 35-yilligi munosabati bilan
“Mustaqilligimiz -abadiy bo`lsin” mavzusida
tayyorlangan bibliografik sharh

Mirzaobod 2026

Mustaqilligimiz-abadiy bo'lsin.

1991-yilda Sovet Ittifoqi poytaxti Moskvada sodir bo'lgan Avqust to'ntarishi ko'plab sovet respublikalarini Sovet Ittifoqidan mustaqilligini e'lon qilishga undadi. O'zbekiston SSR Prezidenti Islom Karimov 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekistonning SSSRdan ajralib chiqib, mustaqil bo'lganligini e'lon qildi. Shu kuni O'zbekiston Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiyani hamda O'zbekistonning davlat mustaqilligi haqidagi qonunni qabul qildi. Ushbu qonunlar Karimov tomonidan imzolanganach, O'zbekiston SSR nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. Keyingi kun hukumat tomonidan milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. Mustaqillik Kuni O'zbekistonning asosiy milliy bayrami hisoblanadi.

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida Toshkentda "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilinishi to'g'risida" qaror va "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" qonun qabul qilindi. Qarorda O'zbekiston SSR O'zbekiston Respublikasi deb qayta nomlanishi belgilandi. 1992-yili ilk bor Mustaqillik kuni nishonlandi. Mustaqillik, eng avvalo, inson huquq va erkinliklarining ro'yobga chiqishidir. Bu huquq va erkinliklardan samarali foydalana olish esa har bir insonning dunyoqarashi, iste'dodi va qobiliyati bilan o'lchanadi. Inson Vatan tuyg'usi bilan yashashi, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtini sevishi va ardoqlashi, vatan mustaqilligini mustahkamlashda o'z hissasini qo'sha olishi eng oliy tuyg'u hisoblanadi. 1991 yilda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi o'zbek xalqining qaddini rosladi. Vatanga bo'lgan qadr-qimmat va mehr-muhabbat ortdi, sobiq ittifoq davrida zo'ravonlik yo'li bilan yo'q qilingan milliy qadriyatlarimiz, dinimiz, urf-odatlarimiz ("Navro'z" bayrami, Ramazon hamda Qurbon haytlari), marosim va bayramlarimiz yana xalqqa qaytarildi.

Mustaqillik yillarida ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'alarimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik, hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rin oldi.

Mustaqillik el-yurtimiz uchun o'z taqdirining haqiqiy egasi bo'lishi, qadr-qimmatini anglashi, munosib hayot kechirishi, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishi kabi imkoniyatlarni yaratdi.

Mustaqillik har bir insonning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarida iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishining mustahkam zamini bo'lib qoldi. Bunda inson mana shu oddiy haqiqatni to'g'ri tushinib, o'z qalbiga



singdirgan taqdiridagina, o'z millatiga, vataniga bo'lgan sadoqati oshib boraveradi. Buning natijasida odamlarni jipslashtiradigan va taraqqiyot sari yetaklaydigan milliy g'oya paydo bo'ladi. Demak, milliy g'oya odamlarning mustaqillikni to'g'ri anglashi, vaziyatni baholashi va uni mustahkamlashga undovchi qarashlarini anglatadi.

Mustaqillik sharofati bilan biz o'z tariximizni qayta va obyektiv holda o'rgandik. Biz o'zimizning kim ekanligimizni, kimlarning davomchilari ekanligimizni anglab oldik. O'z tariximizni o'rganish xalqimizning bilim va ma'naviyati yuksalishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bilim va ma'naviyat faqat ijtimoiy va gumanitar fanlarni o'rganish negizidagina shakllanadi. Biz bu fanlarni o'zlashtirganimizdagina savodli va ma'lumotli bo'la olamiz.

Endilikda biz mustaqillik sharofati bilan Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi bobokalonlarimizning davomchilarini tarbiyalay boshladik.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori mustahkamlanib, davlatimiz suvereniteti, chegaralarimiz daxlsizligi ta'minlandi, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini kuchaytirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda ro'yobga chiqarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi mamlakatimizda **“Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”** bosh g'oyasi ostida keng nishonlanmoqda.

Asosiy tadbirlar va loyihalar

- **Shior va targ'ibot:** Bayram ijtimoiy tarmoqlarda Mustaqillik35 va Uzb35 xeshteglari, shuningdek, telekanallarda namoyish etilayotgan “35 yillik Istiqlol yilnomasi” hujjatli filmlari bilan keng yoritilmoqda. Mustaqillik bayrami munosabati bilan yurtimizda qariyb 50 trillion so'mlik yirik investitsiyaviy loyihalar va ijtimoiy obyektlar foydalanishga topshirildi. Markaziy bank tomonidan “Mustaqillikning 35 yilligi” esdalik oltin tangalari zarb etildi. **Tashabbuslar:** Yoshlar va ta'lim yo'nalishida “35 000 tashabbus” kabi mega loyihalarga start berildi

Butun respublika Mustaqillik kunini keng va shodon nishonlaydi. O'zbekistonning har bir viloyatida o'z bayram dasturi tayyorlanadi. Shu kuni qaerda bo'lishingizdan qat'i nazar, sizni qiziqarli tomoshalar kutadi: o'ziga

xos folklor jamoalarning chiqishlari, quvnoq sport musobaqalari, estrada shousi, xalq hunarmandlarining shovqin-suronli yarmakalari. Va, albatta, shirinliklar va taomlarsiz qanday bayram bo'lishi mumkin? Shu kuni bayram palovi – bu markaziy taom, oilalar, hamkasblar, qo'shnilar, do'stlar to'kin-sochin dasturxon atrofida to'planadi. O'zbekiston poytaxtida esa tantanalarga oldindan tayyorgarlik ko'riladi, chunki bayram shousi shu darajada yorqin va ko'lamli-ki, kishini hayratda qoldiradi. Unda yuzlab statistlar, musiqiy va raqs jamoalari, estrada va kinoning yorqin yulduzlari qatnashadi. Kechki paytda esa maydon uzra ajoyib bayram mushakbozligi yuz beradi.

Istiqlol — o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, milliy o'zlik va buyuk kelajak sari ochilgan yo'ldir. Har bir xalq tarixida uning taqdirini tubdan o'zgartirgan, kelajagiga yangi mazmun baxsh etgan muhim sanalar bo'ladi. O'zbekiston uchun 1991-yil 31-avgust ana shunday buyuk tarixiy burilish bo'ldi. Shu kuni mamlakatimiz davlat mustaqilligini e'lon qildi. Oradan o'tgan 35 yil davomida O'zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotning turli jabhalarida o'z taraqqiyot yo'lini shakllantirib bordi.

Bugungi oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda ilm-fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, raqamlashtirish jarayoni universitetlar faoliyatiga tobora chuqur kirib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar ta'lim resurslaridan foydalanish, masofaviy ta'lim, elektron boshqaruv va ilmiy hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning yangi bosqichi, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor oliy ta'lim oldiga ham yangi vazifalarni qo'ymoqda. Oliy ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan yana biri — ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlari bilan yanada uyg'unlashtirishdir. Chunki bugungi ish beruvchi faqat nazariy bilimga ega mutaxassisni emas, balki amaliy ko'nikma, raqamli savodxonlik, tahliliy va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati hamda jamoada ishlash qobiliyatiga ega kadrlarni izlamoqda. Shu bois kelajak oliy ta'limida “diplom uchun o'qish” emas, “bilim va kompetensiya uchun o'qish” tamoyili ustuvor bo'lishi kerak.

Mustaqillikning 35 yilligi haqida gapirganda, albatta, yoshlar haqida so'z yuritish lozim. Chunki bugungi yoshlar ertangi O'zbekistonning qiyofasini belgilaydi.

Yoshlarning zamonaviy bilim olishi, xorijiy tillarni o'rganishi, ilm-fan va texnologiyalarga qiziqishi, xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etishi uchun imkoniyatlarning kengayishi mamlakatning kelajakdagi intellektual salohiyatini oshiradi.

Mustaqillikning birinchi bayrami

Bayramshunos Usmon Qoraboyevning soʻzlariga koʻra, 1991-yilning 31-avgust kuni birinchi prezident Islom Karimov 1-sentabrni Mustaqillik kuni umumxalq bayrami sifatida eʼlon qiladi. Oʻsha kuni kechqurun hududlar rahbarlari, madaniyat xodimlariga bayramni koʻtarinki ruhda nishonlash boʻyicha topshiriq beriladi. Koʻplab rejissyorlar, teatr ijodkorlari, konsert tashkilotlari tadbirlar oʻtkazishga jalb qilinadi.

«Oʻsha yillari hozirgi Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutida ishlardim. 1991 yilda poytaxtning oʻnlab nuqtalari: Hadra, Beshyogʻoch, Koʻkcha kabi aholi gavjum joylarda konsertlar namoyish etilgan. Biz Mustaqillik maydonida sayil-konsert, turli qiziqarli oʻyinlar tashkil qilishga harakat qilganmiz», — dedi u.

Esimda, maxsus mashinalar bayramona bezatilib, karnay-surnay bilan shahar koʻchalari boʻylab aylangan. Tarixiy sana haqidagi eʼlonni eshitmagan odamlar koʻcha-koʻydagi bunday manzarani koʻrib, xayron boʻlgan, bir-biridan nimalar boʻlayotganini soʻrashgan. Boshqa viloyatlarida ham xuddi shu tarzda nishonlangan. Bir soʻz bilan aytsam, Mustaqillikning birinchi

kuni tadbirlari qisqa vaqt ichida tashkil qilingan.

Mustaqilligimiz 35- yilligi munosabati bilan markazimiz xizmati rahbari Sulaymonova Matluba “Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqilligi 35-yilligi” koʻkrak nishoni bilan taqdirlandi. . Bu

yutuqlarning barchasi, kutubxonaga kitobga boʻlgan eʼtabor.Bunday ragʻbatlantirishlardan soʻng kutubxonachilar benihoya hursandlar, bu eʼtibordan kutubxona hodimlari yanada maʼsuliyatlai ishlashga,tumanimizda kitobxonlarning kitobga boʻlgan qiziqishini oshirishga, kutubxona ishini rivojlantirishga munosib hissa qoʻshib boradilar.

Олд томони



Орқа томони

